

AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-F-son farmoyishi 2-ilovasidagi Respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga muvofiq, 2022-yil 11-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi, Ichki ishlar vazirligi, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi, “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti hamkorligida **“Xavfsiz mahalla” tamoyilining asosiy mezonlari hamda ularga asoslangan tizimni fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga to‘laqonli va samarali joriy etish mexanizmlari**” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkaziladi.

Konferensiya onlayn va oflayn formatda o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Konferensiya quyidagi sho‘balarda ish olib boradi:

1. Yangi O‘zbekistonda oila institutini rivojlantirishda “Xavfsiz mahalla” tamoyilining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. “Xavfsiz mahalla” tamoyilini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga to‘laqonli va samarali joriy etish mexanizmlari.
3. “Xavfsiz mahalla” tizimini takomillashtirishda ichki ishlar xodimlarining faoliyat mexanizmlari.
4. “Xavfsiz mahalla” tamoyilini joriy etishda oilaviy qadriyatlardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.

Maqola matnini tayyorlash bo‘yicha talablar:

1. Anjumanning rasmiy tillari: o‘zbek, rus va ingliz.
2. Matn Microsoft Word matn muharririda, Times New Roman shrifti, 14 o‘lcham, 1,5 interval, yuqori va pastdan 2 sm, o‘ngdan 1,5 va chapdan 3 sm qoldirilib, rasmiylashtiriladi.
3. Sarlavhadan keyin muallif(lar)ning ismi, sharifi va familiyasi, ilmiy darajasi, ish joyi ko‘rsatiladi, bir interval tashlab annotatsiya va kalit so‘zlar uch tilda keltiriladi, so‘ng 2 interval tashlab asosiy matn va oxirida adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi.
4. Maqola mazmuni konferensiya mavzusi va yo‘nalishlariga mos bo‘lib, dolzarbligi asoslanishi, tahliliy, amaliy tavsiyalar berilishi, hajmi A4 formatda 4–7 sahifadan iborat bo‘lishi kerak.
5. Yuboriladigan fayl muallifning familiyasi bilan nomlangan bo‘lishi shart.
6. Matnda keltirilgan fikrlar, statistik ma‘lumotlar, aks etgan g‘oyalar, shuningdek, matn orfografiyasi uchun mas‘uliyat muallif zimmasida qoladi.
7. Maqolalar to‘plam shaklida chop etiladi.

8. Maqolalar va ishtirokchi anketasi yuboriladigan elektron manzil:
Bo‘riyeva Mahbuba +998 (97) 462-55-58 (telegramm kanali)
9. Maqola topshirishning oxirgi muddati: 2022-yil 30-oktabr.
10. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi.

Tashkiliy qo‘mita manzili:

Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Istiqlol ko‘chasi, 51-uy.
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
Telefon: + 998 (90) 925-08-69 (H.Norqulov)

web-sayt: www.moiti.uz

*Ilmiy-amaliy konferensiya
tashkiliy qo‘mitasi*

Ishtirokchi anketasi

Muallifning F.I.Sh.	
Shahar (tuman)	
Ish joyi	
Ilmiy darajasi, ilmiy unvoni	
Maqola nomi	
Sho‘ba nomi	
e-mail	
Telefon raqami	